

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR


2017 yil yanvar-dekabr oylarida

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 60 719,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 %ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi — 34 057,3 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 56%i, korhona va aholining o'z mablag'lari hisobidan esa 26 673,5 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalar-ning 44 %ini o'zlashtirildi.

Jalb etilgan mablag'lar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri va boshqa kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi katta bo'ldi. To'g'ridan-to'g'ri va boshqa kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlarning joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar jami hajmida 20,4 %ni, jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida esa 36,4 %ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar




■ Jalb etilgan mablag'lar

■ Korhona va aholining o'z mablag'lari


Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 14 975,1 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25%ini hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 45 744, 2 mlrd so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 75% i o'zlashtirildi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi — 35%ini Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 26% ni, Respublika byudjeti 22%ni, Davlat maqsadli jamg'armalari 16%ni va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi 1%ni tashkil etdi.



Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning tog`kon snotida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga Sho`rtan gaz kimyo majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilg'i ishlab chiqarishini tashkil etish, gazni desulfurizatsiyalovchi 3 ta yangi blok qurilishi, Yoshlik 1 metal konini o'zlashtirish, qurilish sohasi uchun eng asosiy qurilish materialini hisoblangan sement zavodining qurilishi, ammiak va karbamid ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqa investitsiya loyihalarini sanab o'tish mumkin.

Qarshi-Termiz, Pop-Qo`qon-Andijon temir yo`l liniyalarini elektrlashtirish, 450 MVt quvvatga ega ikkita bug`gaz qurilmasidan iborat umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan yangi issiqlik elektrostantsiyasi qurilishi, Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksining qurilishi, A-373 "Toshkent-O'sh" magistralining "Qamchiq" dovoni orqali o'tadigan 116 - 190 km da joulashgan tog`lik hududlarida 58 km uzunlikdagi avtomobil yo`lini rekonstruksiya qilish, yerusti raqamli uzatish tarmog`ini rivojlantirish kabi yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 39%ini korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari tashkil etadi. Bu korhona va tashkilotlarning asosiy qismi o`z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadidagi investitsiyalarini avvalambor o`z mablag`lari hisobidan amalga oshirishlari bilan bog`liq.

Shuningdek, neft va gaz qazib chiqarish uchun imkoniyati bor barcha hududlarda (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Xisor, Surhondaryo va boshqa hududlarda) qidiruv burg`ulash ishlarining olib borilishi, gazni desulfurizatsiyalovchi 3 ta yangi blok qurilishi, Sho`rtan gaz kimyo kompleksi ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish, Gazli gaz konlarini kompleks ishlab chiqarishga tayyorlash va boshqa ko`plab gaz - kimyo sanoatini rivojlantirish va kengaytirishga yo`naltirilgan investitsiyalar ham boshqa moliyalashtirish manbalari bilan korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari ishtirokida amalga oshirilmoqda.


To`g`ridan to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 27%ini tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish ishlari (1 bosqich), Xisor va Ustyurt investitsiya bloki hududida uglevodorod konlarida qazib chiqarishni yo`lga qo`yish, Qarshi tumanida tekstil kompleksini tashkil etish (2 bosqich), uyali aloqa tizimini kengaytirish, milliy uyali aloqa operatori tarmog`ini shakllantirish va boshqa investitsiya loyihalari.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar




Hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilayotgan bo`lsada, Buxoro Surhondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi investitsion faollik natijasida yuqori o`shish suratlari qayd etilib, mos ravishda ularning Respublikadagi ulushi oshib bormoqda.


Buxoro viloyatida Respublikadagi eng yirik investitsiya loyihasi—Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish ishlari amalga oshirilayotgan bo`lsa, Surhondaryo viloyatida sement zavodi qurilishi, Qarshi-Termiz temir yo`li liniyasini elektrlashtirish, Qashqadaryo viloyatida esa Xisor investitsiya bloki hududida uglevodorod konlarida qazib chiqarishni yo`lga qo`yish, sintetik suyultirilgan yoqilg`i ishlab chiqarishini taskil etish kabi yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 36 598,2 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 19 161,8 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 4 959,2 mlrd. so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa asosiy tarmoqlarda, hususan tog`kon sanoatida yaratilayotgan yangi yirik ishlab chiqarish quvvatlariga investitsiyalar bilan bog`liq.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida yuqorida ta`kidlab o`tilganidek tog`-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 12 405,3 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 20,4 %i o`zlashtirilgan. Shundan 10 895,0 mlrd.so`m yoki jami investitsiyalarning 17,9%i tabiiy gaz qazib chiqarish uchun yo`naltirilgan.




Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo`yicha davlat dasturlarining amalga oshiririshi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog`liq.

Ishlab chiqarish sanoatiga investitsiyalar hajmi 8 746,8 mlrd.so`mni va jami investitsiyalardagi ulushi 14,4%ni tashkil etdi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar: metallurgiya sanoati 1 305,6 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2,2%), oziq-ovqat, ichimlik, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishi 1.265,4 mlrd.so`m (2,1%), tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishi 1 177,7 mlrd.so`m (1,9%).



2017 yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar




Joriy davrda 16 309,0 mlrd so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 26,9%i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Joriy yil boshidan oladigan bo'lsak, yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning o'sish surati bir oz pasaygan bo'lsada, yil ohiriga kelib yuqori suratlarda o'sish kuzatildi. Bu albatta yuqorida sanab o'tilgan Buxoro viloyatidagi Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tay-yorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish ishlari bo'yicha investitsiyalarning o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilayotga investitsiya loyihalari: Angren erkin iqtisodiy zonasida qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalarini konveyr usulida ishlab chiqarishni tashkil etish, kimyo san'atida azot kislotasini ishlab chiqarishni tashkil etish, Buxoro va Samarqand viloyatlarida kanalizatsiya tizimini tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish, Buxoro viloyatining Olot va Qorako'l tumanlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini yaxshilash, hududiy avtomobil yo'llarini rivojlantirish (2 va 3 bosqich), Toshkent shahri ko'chalarini yoritish tizimida energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilishida Respublikaning 3 ta hududi Buxoro viloyati, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyati Respublika bo'yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 76%ini qamrab olgan. Bu yuqorida sanab o'tilgan yirik investitsiya loyihalarini aynan shu hududlarda amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



Obyektlarni ishga tushirish

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yakuniy natijasi sifatida bir qator ishlab chiqarish quvvatlari va ijtimoiy soha obyektlari ishga tushirildi.

Neft va gaz sohasida bir necha ekspluatatsiya uchun burg`ulangan gaz qudug`i, ko`plab quduqni ishlab chiqarishga tayyorlash, avtomobil vositalariga gaz ballonlarini o`rnatish va hizmat ko`rsatish markazi, yiliga 8 ming tonna polimer mahsuloti ishlab chiqaruvchi obyekt, yiliga 6 mlrd metr kub gazni deflyurizatsiya qiluvchi yangi 3 blok, yiliga 2,5 ming tonna plastik idishlar ishlab chiqaruvchi zavod va boshqa ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.


Energetika sohasida 53,9 km uzunlikdagi 0,4-6-10 kV elektr uzatish liniyasi yangi qurilgan bo`lsa, 495,8 km 0,4-6-10 kV elektr uzatish liniyasi rekonstruksiya qilindi. Shuningdek 1,2,3 sonly gidrogeneratorlarning ishchi g`ildiraklarini almashtirish bilan Chorvoq GES gidrogeneratorlarini modernizatsiya qilish kabilar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sekundiga 3,5 kub metr suv tortish quvvatiga ega “Raish-Xakent-2” nasos stansiyasi rekonstruksiya, 597 uyali aloqa bazaviy stansiyalari, 131 ta paxta xomashyosini o`zaro hisob-kitob qilish va monitoringini yurgazish markazlari, 2 ta tezyurar yo`lovchi tashuvchi Talgo-250 elektropo-yesdlarini sotib olish, yiliga 65 ming tonna ruxlangan yoritish ustunlari va yo`l to`siqlari ishlab chiqaruvchi zavod, ko`plab yog`moy ishlab chiqaruvchi sexlarni modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini kompleks ishlab chiqarish, qayta ishlash saqlash va yetkazib berish obyekti va boshqa turli sohalarda yangi obyektlar ishga tushirildi.

Ijtimoiy sohada joriy davrda jami 11293,2 ming kv.m, shu jumladan qishloq joylarda 7825,4 ming kv.m turar joylar ishga tushirildi. Ulardan namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar 1663,8 ming kv.m ni tashkil etdi.


Sog`liqni saqlash sohasiga oid obyektlar bo`yicha 4208 o`rinli kasalxonalar, shu jumladan qishloq joylarda 235 o`rin, 7655 qatnovga mo`ljallangan poliklinikalar (qishloq vracheblik punktlarini qo`shgan holda), shu jumladan qishloq joylarda 3675 qatnovli poliklinikalar ishga tushirildi.

Ta`lim sohasida 94465 o`quvchi o`rinli umumta`lim va ixtisoslashtirilgan maktablar yangi qurilib va rekonstruksiya qilingan bo`lsa, 152 umumta`lim va ixtisoslashtirilgan maktablar kapital ta`mirdan chiqarildi. Shuningdek, 180 o`quvchi o`rniga ega kasb-xunar kollejlari va 28 ta bolalar sporti obyektlari ishga tushirildi.




Kommunal sohada jami 222,3 km uzunlikdagi gaz quvurlari ishga tushirilgan bo`lib, undan 141,1 km uzunlikdagisi qishloq joylarda ishga tushirildi. Suv quvurlari tarmog`i bo`yicha esa 2665,0 km ishga tushirilgan bo`lib, undan 2167,3 kmi qishloq joylarda ishga tushirildi.

Turar joy qurilishida jami Respublikada ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo`yicha Qashqadaryo, Namangan, Toshkent va Surhondaryo viloyatlari yetakchilik qilayotgan bo`lsa, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida eng kam turar joylar ishga tushirildi.



Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi namu-naviy loyihalar asosida qurilayotgan yakka tartibdagi uy joylar qurilishi bo`yicha olib borilayotgan davlat dasturlarining bajarilishi hamda aholining o`zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog`liq.



***O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika
qo'mitasi Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi***

***Nashr uchun mas'ul: J.Saipov
Aloqa telefoni: (0371) 230-80-56***